



TARBIYAVIY JARAYON VA TARBIYA MAZMUNINI MODELLASHTIRISH

Qalandarova Oysuluv Bahriddin qizi

Alfraganus universiteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

1 kurs magistranti

Raxmonova Gulruh Ubaydullayevna

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10649174>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-February 2024 yil

Ma'qullandi: 08- February 2023 yil

Nashr qilindi: 12- February 2023 yil

KEY WORDS

tarbiya jarayoni, tarbiya turlari, modellashtirish, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya mazmuni.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish, shuningdek tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, shaxsni kamol topishida tarbiyaning o'rni yoritib berilgan.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'quvchilarning hayoti va faoliyatini ta'lim muassasalarida pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish uchun, ularning tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ta'sirchan munosabatda bo'lishini unutmazlik kerak. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga tashqi omillarning o'zaro: xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin, ta'siri avvalo o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. O'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini uyushtirayotganda o'qituvchi yoki tarbiyachi tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan tarbiyalanuvchining munosabatini, kechinmalarini, qanday anglashini, baholashini ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiya jarayonini modellashtirishda o'quvchining nafaqat ongi, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishga erishish lozim, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilarning ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonga faol kirib borishlarini o'z xohish istaklari bilan tarbiyaviy faoliyatga faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi [2].

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Ushbu faoliyatni modellashtirishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining manfaati va talab istaklarini e'tiborga olishi zarur. Bola o'z xulqi, xatti-xarakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Ushbu holatlar tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida o'quvchilar ko'p vaqtlarini ta'lim va tarbiyaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kommunikatsion texnologik ma'lumotlarga sarflamoqdalar: modul

telefonlar, internet, kompyuter, DVD filmlar va boshqalar [1]. Ushbu vositalardan oqilona foydalanishni o'quvchiga o'rgatish, ta'qiqlangan texnik vositalardan foydalanishni man etish, ularni nazorat qilish o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalariga kiradi. O'quvchi- larning ko'p vaqtlarini olayotgan keraksiz texnik ma'lumotlarni bartaraf etish uchun faqat modellashtirish asosida ish olib borish mumkin. O'qituvchining tarbiyaviy ishlar rejasida ushbu muammolar yuzasidan turli mavzudagi suhbatlar uyushtirish rejasi o'rin olishi lozim.

Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Aks holda, xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida o'quvchi ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ma'lumotlarga va tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'lib qolishi mumkin [3]. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilangan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi.

Tarbiyani samarali modellashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o'quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish kerak. Buning uchun o'qituvchi quyidagi holatlarni unutmazligi lozim:

- ✓ tarbiyalanuvchi ruhiyatini puxta bilish;
- ✓ ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lib, ular ishtirokida o'quvchi bilan tarbiyaviy mazmunda suhbatlar o'tkazish;
- ✓ o'quvchining ichki dunyosini, xarakterini bilmasdan u bilan qo'pol muomalada bo'lmaslik, sodir etilgan xatoliklarni kechira olish;
- ✓ o'quvchining qiziqishlarini, uni o'rab turgan tashqi muhitni doimiy nazorat qilish;
- ✓ o'quvchini qat'iy kundalik rejimga o'rgatish va uni kuzatib borish;
- ✓ iste'dodini, qobiliyatini va o'zi tanlagan kasbga moyilligini e'ti- borga olib uni takomillashtirish;
- ✓ o'quvchining bola ekanligini, adashishga, ba'zan xatoliklarga yo'l qo'yishini unutmazlik, ushbu salbiy holatlarni kechiktirmasdan tuzatib borish [5].

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan modellashtirilgan va puxta o'ylangan rejalar asosida belgilanib hal etib boriladi.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'qituvchi bilimli, raqobatbardosh yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun javobgar shaxs ekanligini unutmazligi kerak. Ushbu vazifalar tarbiya texnologiyalari maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish uchun tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini hal etish o'qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan:

- o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va maqsad birligi hissini uyg'otish;
- o'quvchilar ongini mustaqil davlatchiligimiz siyosatining tub mohiyati mujassamlashgan milliy mafkuramiz va umuminsoniy qadriyatlar, chuqur bilim va tafakkur, keng dunyoqarash bilan boyitib borish;
- umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatli bo'lish, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglashiga, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga

erishish;

- o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

- tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasida mas'uliyat hissini rivojlantirish;

- vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

- O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

- insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, rahm-shafqatli bo'lish, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish [4].

Shu bilan birga tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari bo'lmish, axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning g'oya va maqsadlari o'qituvchi tomonidan modellashtirilib, bajariladigan vazifalar belgilab olinadi va amalga oshiriladi.

Ushbu tarbiyaviy vazifalar mazmunini anglagan holda o'qituvchi quyidagi faoliyatni olib borishi lozim: Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor bo'lishi, ularga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib belgilangan axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqar) asosida o'quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi [1].

Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish asosida - o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida - o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltiradi, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish [3].

Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi.

Ekologik tarbiyani olib borish bilan - o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat uyg'unligi hamda aloqadorligi haqidagi ma'lumotlar tushuntiriladi, ularda ekologiyaning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalar qaror toptiriladi, o'qituvchi o'quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'am-xo'rlik qilish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi [2].

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyatga faol ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qildiradi, inson mehnati bilan asrlar davomida bunyod qilingan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptiradi, iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlatimiz Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosi tushuntiriladi, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar singdiriladi, huquqiy munosabat va madaniyat mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi [1].

G'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini to'g'ri tushunishni ta'minlash asosida siyosiy faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi, siyosiy madaniyat me'yorlari shakllantiriladi.

Tarbiya texnologiyasida tarbiya jarayoni, mazmun va mohiyatidan kelib chiqib belgilangan vazifalarni o'qituvchi amalga oshirishi uchun uning o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaning eng muhim qonuniyatlaridan biri aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi [5].

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud bo'lgan bir sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon shaxs ongi va dunyoqarashini shakllan- tirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligi talab etiladi [2].

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzluksizligidir. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu - o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o'rin egallasa ham, o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, o'quvchilar belgilangan ma'lum muddatda ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan

bo'sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasai o'qituvchilari ta'siridan chetda qoladilar [4]. Demak, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

Ayni vaqtda, respublikamizda o'quvchilarning ta'lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati - bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati qator pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi [1]. Shunday qilib, zamonaviy tarbiya mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni modellashtirilishi yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega: Tarbiya mazmunining mukammal belgilangan qonuniyatlari mavjud bo'lib, u asrlar davomida har bir davrning talablariga mos ravishda takomillashtirilib kelingan. Tarbiya mazmunida tarbiyalanuvchining yoshi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan tarbiyaviy maqsad va vazifalarga muvofiq ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda axloqiy sifatlari mujassamlashgan. O'quvchini yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy jarayonlarning nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqtiradi. Ushbu tarbiyaviy faoliyatlarning har birini oqilona, jamiyat taraqqiyoti va milliyligimizga xos ravishda modellashtirib o'quvchilar ongiga singdirish kerak.

Adabiyotlar:

1. Avazmurodova G. G. (2022). Tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati. Scientific progress, 3 (4), 852-855.
2. Ахмедова М.А. Бадий-эстетик тарбиянинг ривожланиш тенденциялари // Scientific progress. 2022. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-estetik-tarbiyaning-rivozhlanish-tendentsiyalari>
3. Ibrokhimova M., & Akhmedova M. (2023). The function of a teacher in the formation of a child in a kindergarten in modern society. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(12), 208–214. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/24391>
4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. Cutting edge-science. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

5. Fayziyeva G. S. Tarbiya jarayonining mohiyat va mazmuni // Scientific progress. 2022. №4.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tarbiya-jarayonining-mohiyat-va-mazmuni>.



INNOVATIVE
ACADEMY